



## ENG KO'P MUROJAAT OLIY SUD VA IIVga BO'LDI

Viloyat hokimi esa 900 ga yaqin masalani tingladi

Respublika ishchi guruhi tomonidan Ishtixon tumanida Samarqand, Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari aholisi uchun o'tkazilgan ommaviy sayyor qabulda 2 ming 294 ta masala ko'rib chiqilgan. Murojaatlarning 1 ming 33 tasi joyida hal qilinib, 87 nafar murojaatchiga huquqiy maslahat va tushuntirish berilgan bo'lsa, 1 ming 174 ta masala nazoratga olingan.



Ommaviy qabulda adolat istab O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomov va sudyalarga 513 ta murojaat bo'lgan. Ularning 244 tasi jinoyat ishlari, 196 tasi fuqarolik, 40 tasi ma'muriy va 33 tasi iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlarga tegishli bo'ldi.

Qayd etilishicha, ertalabki soat 10 da boshlanib, 12 soat davom etgan qabulda oxirgi murojaatchigacha eshitilgan va ularga o'z fikrini to'liq bayon etishiga imkon berilgan.

Misol uchun, samarcandlik yosh tadbirkor Nurillo Abdumajidovning murojaatidan so'ng nazorat kassa apparatida noto'g'ri summaga chek urilgani oqibatida ortiqcha hisoblangan 30 million so'mdan ziyod soliq qarzorligi sud tartibida bekor qilingan.

Qabol davomida 112 ta murojaat joyida hal etilib, 292 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berilgan. Shuningdek, 221 ta murojaat bo'yicha arizalar Oliy sud tomonidan kassatsiya va takroran kassatsiya tartibasi hal qilish uchun qabul qilingan. Jazodan ozod qilish bo'yicha kiritilgan taqdimmolar asosida axloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan 95 nafar mahkum jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 13 ta jinoyat ishi bo'yicha 13 nafr shaxs sud zalidan qamoqdan ozod etilib, 1 nafr shaxsga oid jinoyat ishi taraflarining yarashganligi munosabati bilan tugatilgan.

Iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlar tomonidan sud majlislarida tadbirkorlarining 2 milliard 331 million so'mlik da'vo talablar qanoatlantirildi.

Ommaviy qabul O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Nig'matilla Yo'ldoshev va prokuratura organlari tomonidan 353 nafar fuqarordan turli mazmundagi murojaatlar qabul qilingan.

Murojaatlarning 124 tasi ijtimoiy-mo'miyoq, 31 tasi qishloq xo'jaligi, 57 tasi tergov va surishtiruv, 34 tasi sud qarorlari ustidan, 88 tasi sud qarorlari ijrosi yuzasidan, 19 tasi boshqa masalalarda bo'lgan. Ularning 91 tasi joyida ijobji hal etilib, 2 ta murojaatga huquqiy tushuntirish berilgan va 260 ta murojaat ko'rib chiqish uchun ish yurituviga qabul qilingan.

Qabol davomida 3 milliard 469 million so'm zarar undirilib, fuqarolarning qonun bilan qo'riganligidan huquq va manfaatlari tiklangan.

Xususan, Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidan "Hamkor IMIDU"

Y.MARQAYEV tayyorladi.

Kecha muddatidan ilgari  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti saylovini o'tkazuvchi  
7-Samarqand okrug saylov  
komissiyasining navbatdagi  
majlisi o'tkazildi.

Okrug saylov komissiyasi raisi X. Muhammadiyev boshqargan yig'ilishda dastlab uchastka saylov komissiyalar tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Saylov kodeksi hamda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kalender rejaga ko'ra, uchastka saylov komissiyasi okrug saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida qirq kun qolganida tuziladi.

Uchastka saylov komissiyasi a'zoligiga nomzodlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamaot birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan taklif etilib, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi hamda tegishli okrug saylov komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsija etiladi.

– Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlarining uchastka saylov komissiyalar tarkibi bo'yicha tavsiyalarini ko'rib chiqidik, – deydi okrug saylov komissiyasi kotibi O.Toshniyozov. – Uchastka saylov komissiyasi a'zoligiga nomzodlar yigirma bir yoshga to'lgan, o'rtा yoki oly ma'lumotga, saylov va referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish borasida ish tajribasiga ega bo'lishi, aholi o'rtasida obro'-e-tibor qozongan fuqarolar ekanligiga alohida e'tibor qaratdik.

Komissiya a'zolari tomonidan har bir nomzodga doir ma'lumotlar sinchkovlik bilan o'rganib chiqildi. Imkon qadar gender tengligiga erishishga, komissiya a'zolari safida huquqshunoslar, iqtisodchilar, pedagoglar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarning hamda fuqarolik jamiyatini institutlarining vakillari bo'lismiga harakat qildi.

Okrug bo'yicha 1112 ta uchastka saylov komissiyalarining a'zolari umumiy soni 11874 nafarni tashkil etadi. Ularning



## Uchastka saylov komissiyalari tarkibi tasdiqlandi



10155 nafari yoki 86 foizi avval saylovlarida qatnashgan, bu borada tajribaga ega. Birinchi marotaba qatnashayotganlar 1719 nafarni tashkil qiladi. Komissiyalar tarkibida xotin-qizlar 5822 nafar, 30 yoshgacha bo'lganlar 15 foiz. Shuningdek, komissiyalar a'zolarining 1 foizi yoki 141 nafarini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etmoqda.

Mutaxassisligi bo'yicha 51 foizi pedagog, 11 foizi tibbiyot xodimi, 8 foizi iqtisodchilar, 5 foizi muhandislar va boshqa

sohalar vakillaridan iborat. Uchastka saylov komissiyalar raislarining 317 nafari, rais o'rinoslarining 279 nafari, kotiblarning 396 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi.

Majlsida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida uchastka saylov komissiyalar a'zolarini o'qitish, bunda okrug komissiyasi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

**Okrug matbuot markazi.**

## "INSON QADRI UCHUN" TAMOYILI ASOSIDA



Aholini yillar davomida qiyab kelgan masalalarga joyida yechim topish, muammolarni tezkor hal etish maqsadida mutasaddi vazirlig va idoralor tomonidan xalq bilan muloqot qilgan holda "xonardonbay" yurish orqali ish olib borilmoqda. Buning natijasida olis hududlarda to'planib qolgan muammolar hal etilib, infra-tuzilma yangilanmoqda, odamlarning turmush darajasi oshmoqda.

Davlatimiz rahbari topshirig'iga asosan tuzilgan respublika ishchi guruhi aholi muammolari va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni joylarda o'rganib, samarali hal etish maqsadida viloyatda faoliyat olib bordi.

Prezident Administratsiyasi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Xalq qabulxonalarining mas'ul xodimlari, respublika vazirlig, idora va tashkilotlari hamda viloyat, tuman va shahar sektorlari, sohaviy tashkilotlar rahbarlari boshchiligidagi guruh aholining murojaatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan ishlari bilan tanishdi. Joylarda aniqlangan kamchiliklarni bar-taraf etish uchun zarur cho-tadbirlarni ko'rdi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

**Davlat  
dasturida  
belgilanishicha...**

Joriy yil  
oxirigacha  
viloyatdag 23 ta  
ko'p kvartirali  
uylarning tom  
qismini joriy  
va mukammal  
ta'mirlash, 45 ta  
kirish yo'laklari,  
40 ta uyning  
fasad qismi, 20  
ta uyning ichki  
muhandislik, 13  
ta uyning yerto'la  
qismi hamda  
44 dona elektr  
taqsimlovchi  
shitlarini  
ta'mirlash,  
29 ta kodli  
qulflanadigan  
temir eshiklar  
o'rnatish bo'yicha  
manzilli ro'yxatni  
shakllantirish va  
unda belgilangan  
tadbirlarni  
amalga oshirish  
belgilangan.

## "INSON QADRI UCHUN" TAMOYILI ASOSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Jumladan, 15 ta mahalladagi 66,6 kilometr yo'l ta'mirlandi. Misol uchun, Urgut tumani Mo'minobod mahallasida 5,6 kilometr, Narpay tumani No'g'ay mahallasida 5,3 kilometr, Jomboy tumani Sarqipchoq mahallasida 3,9 kilometr, Past Darg'om tumani Elbek mahallasida 3,2 kilometr, Paxtachi tumani Quvondiq mahallasida 2,8 hamda Ishtixon tumani O'zbekqo'rg'on mahallasida 2,5 kilometr ichki yo'llar shag'alashtirildi.



Bundan tashqari, viloyatdagi 135 kilometr uzunlikdagi avtomobil yo'llari ta'mirlandi.

Viloyat aholisiga qo'shimcha 1220,5 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berildi. Elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 209 ta temir beton tayanchlar yangilandi hamda 9,1 kilometr yangi tarmoq tortildi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 2 kilometriga yaqin tarmoq tortildi.

Aholining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash uchun Past Darg'om tumani Zafarobod mahallasida 510 metr, Jomboy tumani Olmazor mahallasida 250 metr va 41-umumi o'rta ta'lum maktabi uchun 180 metr tarmoq tortildi. Oqdaryo, Ishtixon, Bulung'ur, Nurobod, Toyloq va Paxtachi tumanlaridagi mahallalar suv ta'minotidagi nosozliklar bartaraf etildi.

Narpay tumani Tinchlik mahallasidagi

ko'p qavatlari uyning tashqi tomonini ta'mirlash ishlari boshlandi. Samarqand shahar Istiqbol mahallasidagi ko'p qavatlari uylar hovlisida irrigatsiya tarmog'i qurilishiغا kirishildi.

Viloyatdagi yetakchi tibbiy muassasalar mutaxassislari jalb etilgan holda Kattaqo'rg'on, Past Darg'om, Bulung'ur va Urgut tumanlarida maqsadli tibbiy ko'rikilar tashkil etilib, ushbu ko'rikilar davomida 994 nafar fuqaroda turli kasalliklar aniqlandi va ularni davolash choralar ko'ildi. Ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasalarida 15 nafar bemorda yuqori texnologik operatsiyalar o'tkazildi. May oyining oxiriga qadar yana 15 nafar bemorda shunday operatsiya o'tkazish rejalashtirildi. Ijtimoiy himoya-ga muhitoj bo'lgan 78 nafar fuqaro bepul dori-darmon bilan ta'mirlandi.

O'rganish olib borilgan kunlari viloyatmizda 80 nafar ehtiyojmand fuqaroga rehabilitatsiya vositalari tarqatildi. Xususan, Kattaqo'rg'on shahar Damariq mahallasida istiqomat qiluvchi Y. Boboyevga elektr-yurit-mali kreslo-aravacha olib berildi.

Narpay tumani O'zbekkent mahallasida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan, ijtimoiy himoya-ga muhitoj, bir nafar nogiron farzand-ni o'stirayotgan O. Imomovaga hokimlik balansida bo'lgan, zarur jihozlarga ega uch xonalni uy ajratib berildi.

Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida yil boshidan buyon 5396 nafar fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga 233,4 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Shundan, 41 nafar talabaga 299 million so'm ta'lum krediti berildi. 124 nafar fuqaroga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan subsidiya asosida 506,8 million so'mlik tikuvin mashinalari, motokultivator va boshqa vositalar berildi.

Ayni paytda hududlarda bu boradagi ishlarni davom ettirish maqsadida aniqlangan muammolarni har tomonlama tahlil qilish va hal etish uchun ijro muddatlarini va mas'ullar belgilangan holda chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Amalga oshirilayotgan ishlari har bir mahalla kesimida tahlil qilib borilmogda.

Aholini rozi qilish, "Inson qadri uchun!" degan egzu g'oya asosida amalga oshirilayotgan bu kabi ishlari mamlakatimizning eng olis hududlarida ham xalqimiz turmush darajasini oshirish, ular uchun munosib sharoit yaratishga xizmat qilmoqda.

Mamat TURDIYEV,  
viloyat Xalq qabulxonasi mudiri.

## Asl narsanining hamma vaqt o'z xaridori bor

Oqdaryo tumanining Turon mahallasida yashovchi Maqsud Beknazarov duradgor-usta bo'lsa-da, chitgarlik ishini boshlagani ga hali ko'p bo'limadi.



- Baloligimdan duradgorlikka qiziqardim, - deydi Maqsud. - Yigirma yilcha avval qishlog'imizga yaqin bo'lgan usta-duradgorha shogird tushib, hunar o'rgandim. Shu hunar ortidan daromad topib, usta nomini oldim. Uch yil avval Samarqand shahrida chitgarlik bilan shug'ullanuvchi hunarmandaga matoga naqsh solish uchun o'yma qolip yasab berdim. Uning ishini ko'rib, chitgarlik hunariga havasim tushid. Bir yigitga qirq hunar oz. O'ymakorlik qo'limdan keladi, naqsh solishni bilaman, shu hunarni ham o'rganishga astoydil kirishdim.

Paxta yoki ipakdan to'qilgan matoga gul bosish sirdan oddiy ko'rinsa-da, aslida sermashaqqat ish. Bu jarayonda

usta qolipdagisi gullarni bir-biriga moslash orqali naqsh shaklu shamoyillar hosil qiladi. Shu sababdanmi, hunar mandning aytilishu, bu qadim ish bilan nafaqat viloyatda, mamlakatimizda ham sanoqli kishilarga shug'ulanadi. Chitgarlar bo'yoqni o'zları tayyorlaydi. Shubhaisiz, bu hol ulardan muayyan kimyoiy jarayonlarni bilishni, uncha-muncha naqsh san'atidan xabardon bo'lishni va sabr-toqatni talab qiladi.

- Chitgarlik birmuncha murakkab ish bo'lganligi turfayli naqsh va dizaynerlikdan xabaroringiz bo'lishi kerak, - deydi Maqsud. - Mahsulotlarimiz an'anaviy uslubda, qo'l mehnati bilan tayyorlardi. Ushbu nozik ishning barini o'zim

usta qolipdagisi gullarni bir-biriga moslash orqali naqsh shaklu shamoyillar hosil qiladi. Shu sababdanmi, hunar mandning aytilishu, bu qadim ish bilan nafaqat viloyatda, mamlakatimizda ham sanoqli kishilarga shug'ulanadi. Chitgarlar bo'yoqni o'zları tayyorlaydi. Shubhaisiz, bu hol ulardan muayyan kimyoiy jarayonlarni bilishni, uncha-muncha naqsh san'atidan xabardon bo'lishni va sabr-toqatni talab qiladi.

- Chitgarlik birmuncha murakkab ish bo'lganligi turfayli naqsh va dizaynerlikdan xabaroringiz bo'lishi kerak, - deydi Maqsud. - Mahsulotlarimiz an'anaviy uslubda, qo'l mehnati bilan tayyorlardi. Ushbu nozik ishning barini o'zim

usta qolipdagisi gullarni bir-biriga moslash orqali naqsh shaklu shamoyillar hosil qiladi. Shu sababdanmi, hunar mandning aytilishu, bu qadim ish bilan nafaqat viloyatda, mamlakatimizda ham sanoqli kishilarga shug'ulanadi. Chitgarlar bo'yoqni o'zları tayyorlaydi. Shubhaisiz, bu hol ulardan muayyan kimyoiy jarayonlarni bilishni, uncha-muncha naqsh san'atidan xabardon bo'lishni va sabr-toqatni talab qiladi.

Sulaymon MARDIYEV,  
Jasurbek SHUKUROV (surat).



## O'ZBEKISTON – GERMANIYA: TIBBIYOT SOHASIDAGI HAMKORLIK YANGI BOSQICHDA

**Samarqand shahridagi "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm majmuasi Kongress markazi-da O'zbekiston – Germaniya xalqaro sog'liqni saqlash forumi" o'tkazildi.**

Sog'liqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan anjumanda respublikamizdagi ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, tibbiy olyi ta'lum muassasalarini va hududiy tibbiyot maskanlari vakillari, shuningdek, Germaniyaning nufuzli tibbiyot markazlari, yirik farmatsevtik korxonalari rahbarlari, ekspertlari, investorlar oflaysin va onlaysa tarzda ishtirok etdi.

Forumning ochilish marosimida so'z olgan O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov, Germaniyaning mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Tilo Klinner, O'zbekistonning Germaniyadagi Favqulodda va muxtor elchisi Nabijon Qosimov (zoom orqali), "Koch Avtsenna" nemis-o'zbek tibbiyot jamiyatini raisi Xelmut Xan, Germaniya taraqqiyot bankining ("KFW") mintaqaviy vakolatxonasi direktori Andreas Shnayder, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatini (GlZ)ning O'zbekistonidagi vakolatxonasi rahbari Yoaxim Frits tibbiyot yo'naliishi.

Forumning ochilish marosimida so'z olgan O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov, Germaniyaning mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Tilo Klinner, O'zbekistonning Germaniyadagi Favqulodda va muxtor elchisi Nabijon Qosimov (zoom orqali), "Koch Avtsenna" nemis-o'zbek tibbiyot jamiyatini raisi Xelmut Xan, Germaniya taraqqiyot bankining ("KFW") mintaqaviy vakolatxonasi direktori Andreas Shnayder, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatini (GlZ)ning O'zbekistonidagi vakolatxonasi rahbari Yoaxim Frits tibbiyot yo'naliishi.

bo'yicha ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilganligini ta'kidladi.

Forum doirasida yigirma nafraga yaqin germaniyalik mutaxassislar O'zbekistonda tibbiy ta'lum, shifokorlar malakasini oshirish hamda ikki tomonloma hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni, tibbiyot olyi o'quv yurtlari "Faxriy professori" unvonini tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.

- Bugun O'zbekistonda katta o'zgarishlar davri, - deydi Heidelberg universiteti qoshidagi neyroxitirurgiya klinikasi direktori Andreas Gterberg.

- Xususan, tibbiyot sohasida ham ana shunday o'zgarishlarning guvohiga aylanish mumkin. Samarqand davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikdagi faoliyatim samarasida ushbu olyigohning "Faxriy professori" unvonini bilan taqdirlandim. Bu esa neyroxitirurgiya sohasida to'plagan tajribamizni Samarqand sog'liqni saqlash tizimiga jadallik bilan joriy etishga undaydi.

Forum doirasida tuzilgan memorandum asosida Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalarini Heidelberg universiteti qoshidagi neyroxitirurgiya klinikasida malaka oshiradi.

Germaniya taraqqiyot banki bi-

ian O'zbekistonda sog'liqni saqlash muassasalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, muqabil energiya manbalarini ishga tushirish va tibbiy ta'lum bo'yicha umumiy qiymati 175 million yevroga teng 7 ta investitsiyaviy hamda grant loyihasi amalga oshirilmoqda.

Frayburg universiteti bilan hamkorlikda tor sohadagi hamshiralarni Germaniya ta'lum standartlari bo'yicha tayyorlash va qayta o'qitishlarning. Bunda, o'qishni bitirgan hamkorlalar uchun Germaniya tibbiyot klinikalarida faoliyat olib borish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bundan tashqari, Germaniya bilan o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida Sharite universiteti va Robert Kox instituti klinikalar bilan hamkorlikda "Robert Kox – Ibn Sino" tibbiyot fondi tashkil etildi. Mazkur fond doirasida tibbiyot mutaxassislar malakasini oshirish, teledimitsina yordamida mahorat darslarini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jaib qilish mo'ljallangan.

Forum sekxiyalarga bo'lingan holda davom ettirildi. Unda ikki mamlakatning tibbiyot sohasidagi tajribalari o'zaro tahsil qilinib, hamkorlik istiqbali belgilandi.

**Alisher ISROILOV.**

## Tanlangan maktablar kasb-hunar o'rgatishga tayyormi?

Joriy yilning 20-yanvar kuni davlatimiz rahbari raisligida maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda xorijiy tillar o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalarini muhokama qilindi. Ushbu tajribani joriy etish uchun har bir viloyatdan bittadan shahar va ikkitadan tuman tanlab olindi.

Hokimliklarga tanlab olingen maktablarda kasb-hunar ustaxonalarini tashkil etish, ularni jihozlash va zarur ashayolar bilan ta'minlash vazifikasi qo'yildi. Bunga yoshlar yetakchilari va tadbirkorlar ham jalb etilishi, yoshlar jamg'armasidan mablag'lar yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Viloyatimizdagi Samarqand shahar, Urgut va Past Darg'om tumanlaridan uchtadan maktab tanlab olingen. Ayni paytda tajribani joriy etishga mo'ljallangan maktablarda o'quvchilarni kasb-hunaraga tayyorlash uchun maxsus ustaxonlar tayyorlanmoqda. Past Darg'om tumanidagi tajribani joriy etish rejalashtirilgan maktablarda bo'ldik.

Tumandagi 111-umumiy o'rta ta'lum maktabi hovlisida 6 xonadan iborat alovida bino bo'lib, o'quvchilarga shu yerda kasb-hunar o'rgatish rejalashtirilgan. Bino ancha vaqtidan beri foydalananligi sababli ta'mortalab ahvolga kelgan. Ayni paytda unda "Bek beton" MCHJ tomonidan ta'minlash ishlari olib borilyapti.

"Bek beton" MCHJ rahbari Bekzod Sadinovning aytilishcha, uch kunda bino ta'midan chiqadi. Ammo binoning holati va u yerda ishlayotgan 4 kishidan iborat ishchilarni ko'rib, bu gapga ishonmadik. Sababi, hali binoning bitta xonasi ham ta'midan chiqmagan. Maktabda tikuvchilik, pazandalik, ayollar va erkaklar sartaroshligi kasblarini o'rgatish rejalashtirilgan.

Tumandagi 1700 o'ringa ega 2200 nafar o'quvchisi bor 21-umumiy o'rta ta'lum maktabida kasb-hunar o'rgatish uchun to'rtta o'quv xonasi ajratilgan. Ammo ushbu xonalar hali parla, stol-stullardan bo'shatilgan. Maktabga 10 ta tikuva mashinasi (shundan ikkitasi chok tikadi-gan mashina, ikkita dazmol), bitta pishiriq pechi keltirilgan, biroq xona bandligi uchun joyiga o'rnatilmagan.

Bundan tashqari, maktabda chilangarlik, sartaroshlikni o'rgatish rejalashtirilgan.

Shuningdek, maktabga pazandalik kasbi bo'yicha bitta pishiriq pechi berilgan. Bundan tashqari, tadbirkorlarni jaib etgan holda yengil konstruksiyalni sartarosh-xona qurib, ayollar va erkaklar uchun sartaroshlik kasbini o'rgatish rejalashtirilgan.

Tanlab olingen maktablarda joriy yilning 2-sentabridan tajriba-sinov tarzida o'quvchilar kasb-hunar va chet tiliga o'rgatiladi. Keyinroq boshqa maktablarda ham ushbu tajriba qo'llaniladi. Ammo bugun shundoq ham o'quv xonalarini yetishmayotgan maktablarda bunday tajribani amalga oshirish uchun katta mablag' talab etiladi.

**Kurshida ERNAZAROVA.**

Iksitoslashtirilgan o'quv dargohida zamonaviy jihozlangan IT maktabi bo'lib, o'quvchilar axborot texnologiyalarini o'rganadi.

Shuningdek, maktabga pazandalik kasbi bo'yicha bitta pishiriq pechi berilgan. Bundan tashqari, tadbirkorlarni jaib etgan holda yengil konstruksiyalni sartarosh-xona qurib, ayollar va erkaklar uchun sartaroshlik kasbini o'rgatish rejalashtirilgan.

Tanlab olingen maktablarda joriy yilning 2-sentabridan tajriba-sinov tarzida o'quvchilar kasb-hunar va chet tiliga o'rgatiladi. Keyinroq boshqa maktablarda ham ushbu tajriba qo'llaniladi. Ammo bugun shundoq ham o'quv xonalarini yetishmayotgan maktablarda bunday tajribani amalga oshirish uchun katta mablag' talab etiladi.

**Kurshida ERNAZAROVA.**

# TURIZMDA FAN VA INNOVATSIYA

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida "Turizm. Fan. Innovatsiya" xalqaro turizm konferensiysi bo'lib o'tdi. Konferensiya sohadagi ilmiy izlanishlar samarasini amaliyotda qo'llash, innovatsion yondashuvlar asosida turizmni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Xalqaro ekspertlar, sohaning yetul mutaxassislari turizm rivoji uchun bugungi kunda eng zarur bo'lgan jihatlarga bag'ishlangan ma'ruzalar bilan ishtirot etdi. Shuningdek, yosh tadqiqotchilar tomonidan soha startaplar taqdimoti o'tkazildi.



Tadbir davomida turizm sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali samadarliklari oshirishga doir yangiliklar taqdim etildi. Xususan, "S.A.T.I.A" MCHJ sayyohlik kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan Samarqand tarixidan so'zlovchi immersiv texnologiya ko'phaliyiniga e'tibor markazida bo'ldi.

- Ushbu qulqochinda sayohat spektakli yuklangan, Bibixonim masjididan boshlangan sayohat spektakli qadimiy shaharning diqqatga sazovor manzillari bo'yab davom etadi, - deydi kompaniya rahbari Ravshan To'raulov. - Immersiv texnologiya majjudlik effektini yaratish ma'nosini bildiruvchi so'z bo'lib, sayyohga sayohat davomida qadimiy shahar haqida hikoya qilib beradi. Spektakli hozircha ikki tilda - ingliz va rus tillarida taqdim etilyapti. Kelgusida yana bir nechta tillarda

S. ASOMIDDINOV,  
B. MUSTANOV (surat).

yuklanishi rejalashtirilgan.

Bu kabi geolokatsion bilakuzuklar, mobil qo'llanmalar, chiptalarini to'lash dasturlari, virtual reallik texnologiyalari qo'llanilishi sayyohlarning xohish-istaklarini aniq tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa turizm biznesining rivojlanishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori Iskandar To'xliyev, Polsha Respublikasi Lublin texnologiya universiteti vakili Jerji Montsiyevich, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti professori Nargis Nurilla va boshqalarning bugungi kunda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etishga bag'ishlangan ma'ruzalarini tinglandi.

S. ASOMIDDINOV,  
B. MUSTANOV (surat).

Toshkent shahrida ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda tahsil olayotgan o'quvchilar o'rtasida respublika fan olimpiadasi bo'lib o'tdi.

Unda Samarqand shahridagi 59 "Nurli maskan" maktab-internati o'quvchilari ham faol ishtirot etib, ikki nafar o'quvchi olimpiadada g'oliblar safidan joy oldi. Jumladan, Parviz Qudratullayev tarix fanidan, Odina Shovdirova matematika fanidan birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

O'quvchilarning har biri 3960000 so'mdan pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Ta'kidlash o'rninkisi, "Nurli maskan" maktab-internati o'quvchilari 3 yildan buyon respublika fan olimpiadasida g'oliblar qatoridan joy olib keladi va muhimmi, ushbu natijalar viloyatimizning respublika bo'yicha ta'lif reytingi oshishiga xizmat qilmoqda.

Samarqand shahrida "Biz - sportchi qizlarmiz" shiori ostida sport maktablarining ayol xodimlari o'rtasida mini-futbol bo'yicha an'anaviy musobaqanining respublika II hududiy bosqichi o'tkazildi.

## Ishda ham, sportda ham faol ayollar

O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi federatsiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan musobaqada Samarqand, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxonaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqlop'iston Respublikasi jamoalarini babs olib bordi.

Ikki kun davom etgan musobaqa yakuniga ko'ra, Samarqand viloyati jamoasi g'alaba qozonib, respublika final bahsi yo'llanmasini qo'lg'a kiritdi.

Musobaqa ishtirokchilarini taqdirlash marosimida O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi raisi Sh.Dehqonov, O'zbekiston Oliy Majlisi Senati a'zosi F.Toshev, viloyat hokimining o'rinnbosari R.Qobilov ishtirok etdi.

G'oliblarning hamda hamkor tashkilotlar rahbarlari, faxriy sportchilarga kasaba uyushmasi tomonidan tashakkurnomalar taqdim etildi.

Husn ELTOYEV.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### MINNATDORMIZ!

Davlatimiz rahbarining sa'y-harakatlari bilan respublikamizda turizmga, xususan, ichki turizmga katta e'tibor berilmogda. Sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Yaqinda tumanimizдан "Temur daftari" ga ro'yxatga olingan va faol mehnat faxyiyalaridan iborat yetmish ikki nafar fuqaro ikki kun davomida Xorazm viloyatida bo'lib, tarixiy obidalardan bilan yaqindan tanishib kelishdi. Bizning mahallamizdan ham sakkiz kishi sayohat qilib keldi. Biz sayohatchilar nomidan O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi Suhrob Rafiqovga homiylik va sayyohlarga namunali xizmati uchun mannatdorchilik bildiramiz.

**Sobira G'AFFOROVA,**  
Paxtachi tumanidagi "Shamsnazar" MFY raisi,  
tuman Kengashi deputati.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Satibaldiyeva Dilafroz Djaxatovnaga (2022-yil 5-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ubaydullayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Babakalanova Mavluda Odilovnaga (2022-yil 29-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

\*\*\*

Kattaqo'rg'on tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Nasiba Akbarovnaga (2022-yil 27-mayda vafot etgan) tegishli

**Manzil:** Samarcand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Kasimova Nasiba Akbarovnaga (2022-yil 27-mayda vafot etgan) tegishli

mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Axmedova Lola Zakirovna (2014-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Amir Temur ko'chasi, 108-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Bolshakova Aleksandra Sergeyevnaga (2022-yil 30-oktobrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromov Jamshid Qo'idoshevich notarial idorasida marhum Aliqulov Ashrabboy Temirovich (2023-yil 21-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromov Jamshid Qo'idoshevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Kasimova Nasiba Akbarovnaga (2022-yil 27-mayda vafot etgan) tegishli

**Manzil:** Samarcand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

\*\*\*

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullaev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Mardiyev Shukurga (2015-yil 7-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Oqdaryo tumanı Loyish shaharchasi, Amir Temur ko'chasi.

\*\*\*

**BEKOR QILINADI**  
Payariq tumanidagi "O'RAZTOY OQ PAXTA DALALARI" fermer xo'jaligining (STIR: 308252582) dumaloq muhri va burach tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*

**TOPGANGA MUKOFOT!**

Past Darg'om tumanidagi "Temur Malik Stroy" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli "T28 XCHMS1" rusumli traktor, "T-4 A" rusumli traktor va "2 PTS-4793" rusumli tirkamalarning texnik pasportlari Past Darg'om tumanı hududida yo'qolgan. Ushbu hujjalarni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon:** +99897-288-07-07.

Past Darg'om tumanidagi 4-kashnar maktabi jamoasi va kasaba uyushma qo'mitasiga kasb-hunar maktabi direktori Otabek Choriyevga otasi Majid ota CHORIYEVning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etidi.

**BIR GURUH DO'STLARI.**

## Samarqandlik ikki o'quvchi fan olimpiyadasi g'olib bo'ldi



## Soliq to'lovi ortiqcha undirilgan ekan...

Fuqaro soliq inspeksiysi tomonidan qo'llanilgan soliq to'lovidan norozi bo'lib, adliyaga murojaat qildi.



foydalanilganligi sababli belgilangan soliq stavkalarining uch barvari miqdorida soliq hisoblangan hamda 507 991,06 so'm ortiqcha soliq to'lovi undirilgan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan Davlat kadastrlar palatasi tuman filialiga kiritilgan taqdimoma asosida fuqaroning muammosi qonuniy yechim topdi. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan, 0,0466 hektar yer uchastkasi vaqtinchalik bilan qo'shib olingan yer maydoni sifatida kadastr hujjalari rasmiylashtirilgan va davlat ro'yxatidan shu asosda o'tkazilgan.

Birod kadastr organi tomonidan yer uchastkasining 0,06 hektar qismi fuqaro T.S.ga meros qilib qoldiriladigan umrlob egalik qilish huquqi asosida, birikirib berilgan 0,0466 hektar yer uchastkasi esa o'zboshimchalik bilan qo'shib olingan yer maydoni sifatida kadastr hujjalari rasmiylashtirilgan va davlat ro'yxatidan shu asosda o'tkazilgan.

Oqibatda Soliq kodeksining 437-moddasi to'qqizinchiligi qismiga muvofiq, T.S.ga birikirib berilgan 0,0466 hektar yer uchastkasi dan hujjalarsiz, ya'ni hujjalarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda

Shuningdek, adliya bo'limi tomonidan tuman davlat soliq inspeksiysiga kiritilgan taqdimoma asosida 2020-2022-yillarda davo-mida fuqaro T.S.dan yer soliq'i sifatida undirilgan to'lovlari soliq bo'yicha kelgusi to'lovlari uchun hisobga olindi.

**Viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati.**

## Fayzullo HOMIDOV



Qishloq xo'jaligi sohasi faxriysi, ajoyib inson Fayzullo Homidov yetmish ikki yoshida vafot etdi.

F.Homidov 1951-yilda Urgut tumanı Kenagas mahallasida tug'ildi.

O'rta maktabni bitirib, 1968-yilda Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi qishloq xo'jaligi texnikuming buxgalteriya bo'limiga o'qishga kirdi. O'qishni bitirib, 1972-1973-yillarda armiya safida xizmat qildi.

U mehnat faoliyatini 1974-yilda Urgut tumanidagi Navoiy nomli jamao xo'jaligida chorva bo'limi hisobchisi vazifasidan boshladi. Ishdan ajralman holda 1978-1983-yillarda Toshkent qishloq xo'jaligi instituti buxgalteriya fakultetida o'qib, olyi ma'lumoti bo'idi.

1985-yildan xo'jalikda kassir, bosh hisobchi yordamchisi, bosh hisobchi, 1995-yildan kolxoza kashnar mukofotlari bilan xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromov Jamshid Qo'idoshevich notarial idorasida marhum Aliqulov Ashrabboy Temirovich (2023-yil 21-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromov Jamshid Qo'idoshevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.</

# NAMOZ BOTIR

U kim, qachon va qayerda  
tug'ilgan?

Tarixda shunday mard va jasur o'g'lonlar  
otganki, ularning hayotini chuqrur o'rgani-  
sh, xolisona tahlil qilish va hozirgi avlod-  
ga yetkazib berish tarixchilar oldida turgan  
muhim, dolzorb vazifalardan biridir.

1904-1907-yillarda Turkistonidagi mustamlak  
zulmiga qarshi kurash olib borgan qasoskor Namoz  
botir harakati o'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldir-  
gani bilan alohida ahamiyatga ega.

Xo'sh, Namoz Pirimqul o'g'li kim va qayer-  
da tug'ilgan? Ushbu savolga javob topish uchun  
"O'zbek sovet ensiklopediyasi"ning 7-tomini  
varaqlayman (O'zbekiston FA akademigi Mo'minov  
I.M. tahriri ostida. Toshkent, 1976-yil, 539-bet):

"Namoz Pirimqul o'g'li 1865-1907-yillarda

1905-1907-yillardagi rus burjua-demokratik revolu-  
tyusiyasi davrida Samarqand atrofidi qishloqlarda  
ko'tarilgan xalq harakati yo'lboschchisi (qachon, qa-  
yera tug'ilganligi aytilmagan)...".

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" sahifalarida  
(Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2003-yil, 262-bet.  
(Taxminan 1877-yil Kattaqo'rg'on, O'tarchi qishlog'i  
- 1907-yil) yozilishiha, "Samarqanda milliy zulm va  
haqszilishiqa qarshi ko'tarilgan ommaviy xalq harakati  
boschligi... Namoz Pirimqul o'g'lining qilgan ishlari  
xalq o'rtaida doston bo'lib ketgan. Xalq baxshisi  
Nurmon Abduvov o'g'li "Namoz" dostonini yarat-  
gan" (tarixchi Naim Norqulov).

"O'zbekiston xalqlari tarixi" darsligiga (O'zbekiston  
Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti, Toshkent-  
1993-yil, 194-bet) ko'ra, "Namoz Pirimqul o'g'li aslida  
Kattaqo'rg'onning Eshon (ba'zi manbalarda O'tarchi)  
qishlog'i dan bo'lib, tergov hujjatlari qaraganda,  
1877-yilda tug'ilgan. Ota-onasi chaqaloqligidayoq va-  
fot etib, 7-8 yoshlaracha amakisinkida yashaydi...".

Tarixchi olimlar Naim Norqulov va Hamdam  
Sodiqov "Guliston" jurnalining 1972-yil 5-sonidagi  
"Namozdayin bir zo'r o'tdi jahonda..." maqolasida  
"Namoz Pirimqul o'g'li Kattaqo'rg'onning O'tarchi  
qishlog'i dan bo'lib, 1877-yilda tug'ilgan. Bolaligi-  
dayoq yetim qolib, avval amakisinkida yashaydi,  
so'ng qarovsiz bolalar bilan topishib, Samarqand va  
Toshkent shaharlari darbadar yuradi", deb yozadi.

Yana Naim Norqulov va yozuvchi Samardin  
Sirojiddinovning 1972-yil "Lenin yo'li" (hozirgi  
"Zarafshon") gazetasida berilgan "Namoz kim edi?"  
sarlavhali maqolasida "Namoz asli kattaqo'rg'onlik,  
1865-yilda Eshon qishloqda tug'ilgan", deyiladi.  
Jurnalist Mardi Nuriddinovning "Qindan chiqqan  
qilich" qissasida ("Lenin yo'li" gazetasi, 1979-yil  
10-30-aprel sonlarida) "Namoz asli Kattaqo'rg'onda-  
gi Eshon qishloqda tug'ilgan. Hali beshikdaligida  
onasi qazoq qilgan. Otasi taqdир taqozosi bilan Dah-  
bed volostining Qo'shmachit qishlog'iiga kelib qol-  
gandi...", deyiladi.

Nurobod tumani Jom qishlog'iilik tarixchi Odil Hu-  
sanov "Erk uchun qindan chiqqan qilich" maqolasida  
("Zarafshon" gazetasasi, 2006-yil, 18-iyul) Namozni  
Jomda tug'ilgan, deb yozadi.

Man, xalq qahramon Namozning qayerda va  
qachon tug'ilganligi bilan bog'liq turfa qarashlar.  
Kamina ham 1979-yil Samarqand davlat universite-  
ting tarix fakultetini bitirish arafasida yozgan dip-  
lom ishimda 1970-yillar gazeta va jurnallarda bosil-  
gan yuqorida ko'rsatib o'tilgan manbalarga tayanib,  
Namoz Kattaqo'rg'on uyezdining Mitan volostiga  
qarashli O'tarchi qishlog'iida tug'ilgan, deb yozgan-  
man. Shundan buyon oradan qariyb 45 yil o'tdi.

Garchand, shu yillarda davomida Namoz botir  
xotirasini abadiylashtrish va harakatining 100 yilli-  
giga bag'ishlal ilmiy konferensiya hamda boshqa  
tadbirlar o'tkazish uchun yozuvchilar, tarixchi olimlar  
bilan ko'p marotaba uchrashgan, O'zbekiston Fanlar  
akademiyasiga qatnagan bo'lsam-da, aytarli natijaga  
erishmadim.

Shu vaqt mobaynida Namoz Pirimqul o'g'li  
harakati to'g'risidagi manbalarni yanada ko'proq  
to'plash, tanqidiy o'rganish, mukammalroq ilmiy  
kitob yaratish orzuasi menga tinchlik bergan emas.  
2021-yil yanvar oyidan buyon O'zbekiston Milliy  
arxivsi va Alisher Navoiy nomli Milliy kutubxonada  
o'tirib, manbalarni yanada chuoqroq o'rganishiga  
harakat qilyapman. Qolaversa, Namoz botir va opasi  
Ulug'oy Pirimqul qizi (enamning katta onasi, buvusi  
ruhlari mendan shuni kutmoqda deb o'yayman.

Bu borada o'zining beg'araz yordami va



maslahatla- rini ayamagan tarix fanlari doktori Qahramon Rajabov va Hamdam Sodiqovlarga o'z minnatdorchiligini bildiraman.

Xalqimizda "Kezi kelsa, faqat qog'oz gapiradi", degan ajoyib bir ibora bor. Endi arxiv hujjatlari bilan tillashadigan bo'isak, dastlabki tergov ma'lumotlariiga ko'ra, 1904-yilda Namoz Pirimqulovning yoshi 32 da bo'lgan (bundan chiqdi, 1872-1873-yillarda tug'ilgan).  
"...tug'ilgan joyi: Buxoro amirligining Boysun shaharchasi (hozirgi Surxondaryo viloyati);  
doimiy yashash joyi: Jar qishloq, Samarqand uyezd, Dahbed volosti;

lavozimi: yo'q;  
millati va urug'i: o'zbek, qo'ng'iroq;

oilaviligi: uylangan, bolasi yo'q;  
mashg'uloti va hunari: o'g'rilik (o'sha davor-  
da mustamlakachi hukmdorlar va boy amaldorlar  
Namozni o'g'ri, qaroqchi deb atashgan);

mulki bormi: Jar qishloqda o'ttiz tanob yeri va  
hovlisiz bor;

ilgari ham sudlanganmi: 1902-yil Siyob mirovoy  
sudi qarori bilan to'qqiz oyga qamalgan;

ko'rinishi: o'rtalbo'yi, qorasogol" kabi ma'lumotlari keltirilgan (O'zbekiston Milliy arxivsi F.I.-130.  
Ro'yxat -1, yig'ma jild 2894, XI tom, 5-bet).

Bundan tashqari, Samarqand uyezd 2-uchastka  
mirovoy sudi tonomidan Dahbed pristavi nomiga  
1905-yil 31-martda yuborilgan № 918-sonli (№  
11-sonli delo yuzasidan) maxsus xatda Dahbed  
volostining Jar qishlog'iida yashovchi 1630- va  
1632-moddalar bo'yicha ayblanayotgan Namoz  
Pirimqulov haqida shoshilinch ma'lum yuborishni  
so'radi. Bu rasmiy xatga javoban yuborilgan ma'lum  
motnomada "Namoz Pirimqulov, 32 yosh, tug'ilgan  
joyi Buxoro amirligining Boysun shaharchasi"  
(O'zbekiston Milliy arxivsi F.I.-130, Ro'yxat-1. Yig'ma  
jild 2931, VI-tom, 65-bet) ekanligi ko'rsatilgan.

Uchinchini bir rasmiy hujjatda ham Namozning  
Buxoro amirligining Boysun shaharchasida tug'il-  
ganligi, 5 yoshida Dahbed volostiga kelganligi, xotini  
va uy-joyi borligi (o'sha joyda F. I-130. Yig'ma  
jild 2964. VIII-tom, 82-bet) ko'rsatib o'tildi.

Arxiv hujjatlariga ko'ra, Namoz 1872-1873-yillarda  
Buxoro amirligining Boysun shaharchasida tug'ilgan  
bo'lib chiqmoqda. Endi ularni qanday qilib o'sha  
davrdagi Samarqand uyezd Dahbed volosti yaqinida-  
gi Jar qishlog'iga kelib qolganligi haqida fikrlashsak.  
Oila boshiga kulfat tushib, ota-onasidan barvaqt  
ajralgan Ulug'oy, Namoz va hozircha ismi aniqlan-  
magan yana bir singlisi ularning yaqin qarindosh-  
lari tonomidan Jar qishloqqa ko'chirib kelтирilgan.  
Namozning bu qishloqda avvaldan yashab kelayot-  
gan bir qancha qarindosh-urug'lari bo'lgan, deb  
bemalol aytishimiz mumkin. Chunki arxiv hujjatlarida  
Namozning yaqin qarindoshlariga uylangan bir nechta  
fuqarolarning nomlariha duch kelamiz. Jumladan,  
"Xolbek Xo'jayorov - 38 yosh. Dahbed volostining  
Jar qishlog'iida yashaydi. Dini muslimon. Namozning  
pochchasi. Pirimqul qizi Ulug'oyga uylangan" (o'sha  
joyda yig'ma jild 2931, 120-bet).

Samarqand okrug sudining Kattaqo'rg'onda  
bo'lib o'tgan tergovida Namozning xizmatkori Ham-  
rovo D'stoboyev bergan ko'rsatmada "Egamberdiy Rayimberdi - Jar qishloqdan, 19-20 yosh,  
o'rtalbo'yi, qoshi qalin, ko'zi qora, soqoli yo'q."  
Namozning kuyovi", degan ma'lumotlarni beradi  
(o'sha joyda yig'ma jild 2963, 28-bet). Bu odam  
haqidagi ma'lumotlar arxiv hujjatlarining boshqa sa-  
hifalarida ham bo'lib, kuyovi ekanligi ta'kidlanadi.

1905-yil 29-sentabr kuni Namozning o'rtoqlari bilan  
o'z uyiga kelmoqchi bo'lganligi haqida mish-mish

chiqadi. Bu xabarni eshitgan Dahbed volosti boshqa-  
ruchisi Mirza Hamid Husainboev, Jar qishloq jamiyati  
oqsoqoli Mirzamuhhammadqul Nurillaryev, elliboshi  
Abduvohid Abdusamatov, shuningdek, 2 nafr kazak  
askari, oqsoqolning yigitlari Sultanbek Yovgochdiyev  
va Avaz Abdurashidov, jami 6 kishi kechasi soat 5 da  
Namozning uyini bosadilar. Bu yerda qo'iga olingan-  
lardan biri "Boshmon Avazmuroidov bo'lib, Buxoro  
amirligining Qarshi shahridagi Jumabozor qishlog'idan  
ekanligi, Namoz bilan 6 yıldan buyon tanishishi, uning  
qarindoshiga uylanganı, hozir esa Namozning uyidagi  
qurilishga yordam berayotganligi"ni aytadi (o'sha joyda  
yig'ma jild 2931, 64-bet).

1979-yil diplom ishi yozish davomida jarqishloqlik  
Rajab ota Normurodov (1895-1979-yillar.) va qo'shni  
go'shqo'rg'onlik Sanaqul ota Xudoydodovlar  
(1896-1984-yillar.) bilan ko'p suhbatlashganman.

Ayniqsa, Rajab ota Normurodovning Namozni bir  
necha marotaba ko'rgani, opasi Ulug'oy va boshqa  
qarindosh-urug'larini bilganligi, opasining uyiga tosh-  
kentlik yozuvchilar kelganligini (1927-1928-yillarda Ab-  
dulla Qodiriy va Cho'lpion kelgan. Ulug'oy katta onam-  
izni Samarqand shahriga foytun aravada olib ketib,  
birga rasmga tushgan) ayтиб bergan. Bundan tashqari,  
Nurmon shoiring Jar qishloqqa kelib, choyxonada  
do'mbira chertib, "Namoz" dostonini kuylagini va  
nihoyat Namozning Galabek degan joyda o'ldirilganli-  
gi kabi ma'lumotlar hozirda arxiv manbalariga mosligi  
bilan ham yanada qimmatli.

Qariyalarning aytilishicha, Namoz jarqishloqlik Jav-  
lonqul degan kishining Tiniq ismli qiziga uylangan.  
Biroq ular o'tasida farzand tug'ilman.

Namoz haqida film ishlash uchun 1958-yilda Jar  
qishloqqa bir guruh kinochilar kelishadi. Kinorejissyor  
tatar kishi bo'lgan va u Abdulla Qodiriy bilan Ulug'oy  
katta onamiz birga tushgan va enam uzoq yillar saqlab  
kelgan so'nggi nusxa rasmiy qaytaribi berish sharti  
bilan oladi. Biroq na kino ishlab yakuniga yetkaziladi,  
na rasm qaytariladi. 1990-yil Abdulla Qodiriyning  
uy-muzeysi tashkil etilishi munosabati bilan biznikiga  
toyloqlik shoir Jamol Sirojiddin bilan Abdulla Qodiriy-  
ning nabirasi Xondamir Qodiriy kelishdi. Uy-muzeysiga  
qo'yish rejalashtirilgan o'sha noboy rasmiy topib berol-  
maganimizdan ancha xijolat bo'ldik.

"O'zbekiston xalqlari tarixi" darsligida berilgan  
ma'lumotlar va tarixchi olimlarimiz N.Norqulov va  
H.Sodiqov, shuningdek, o'tgan asrning yetmishinchı  
yillarida men suhbatlashgan nuroni otaxonlarning  
gaplariga qaraganda, Namoz va uning opa-singli-  
sini Jar qishloqqa ko'chirib olib kelgan yaqin kishisi  
uning amakisi bo'lgan. Ular shu xonadonida o'sib,  
voyaga yetgan. Akasining uchta yetim farzandini  
o'z bag'riga olib, ularga otalik qilgan amakisi Jar  
qishloqlik bo'lgan ekan, shu qishloqda shuncha  
qarindosh-urug'i va ukasi bo'lgan Namozning otasi  
jarqishloqlik bo'lishi mumkinni?

Darhaqiqat, shunday bo'lganligi uchun ham bu  
yerdə muqim yashash kelayotgan yaqin kishilari ularni  
olib keldi va o'z qaramog'iga oldi. Mantiqan fikrla-  
gan har qanday kishi bu gaplarga e'tiroz bildirmasligi  
turgan gap. Namozning otasi qanday qilib Boysun  
shaharchasiga borib qolgan, o'sha yerdan uylangan-  
mi yoki boshsha sababmi, buyog'i biqza qorong'i.

Namoz bilan shaxsan tanish bo'lgan Kat-  
taqo'rg'on uyezdining Enamyaxshi qishlog'iilik Nur-  
mon shoir Abduvov o'g'li o'zining "Namoz" dostoni-  
da shunday deydi:

Namozbek deydilar asli otini,  
Dahbed deydi o'sgan viloyatini.  
Bir fasil qilayin ta'rifotini,  
Gazet bilan eshitib edi Nikolay,  
Zor yig'ladi o'rddagi xotini (O'zbek poeziyasining  
antologiyasi. Nurmon Abduvov o'g'lining "Namoz"  
dostoni. O'z.Dav.nashr. Toshkent-1948-yil, 215-bet).

Akademik Boturxon Valixo'jayev "Mirzo Qo'non-  
boy kim bo'lgan?" maqolasida yozuvchi Mirzo  
Qo'nonboyning Dahbed volosti qozixonasida Namoz  
bilan uchrashgani va u haqida yaxshi taassurot-  
da bo'lganligi haqida yozadi ("Zarafshon" gazetasi  
2004-y. 12-avgust).

Jurnalist va tarixchi olim H.Sodiqov  
"Obshchestvennye nauki v Uzbekistane" jurnalining  
1978-yil 4-sonidagi ilmiy maqolasida "Namozning  
doimiy yashash joyi Jar qishloqda, uy-joyi, oilasi bor"  
(H.Sodiqov, "Obshchestvennye nauki v Uzbekistane"  
jur. 4-son, 1978-yil 54, 58-betlarligi) haqidagi o'zini-  
ning xolisonsa fikrini bildiradi.

Yugoridagilardan bo'rinib turibdiki, Namoz botir  
haqida qachon va qayerda gap ketsa, u yashagan  
joy Dahbed volosti, qishlog'i esa Jar qishloq ekan-  
ligi aytiladi. Bu ikki nom atamasi Namoz botir nomi  
bilan chambarchas bog'liq. Tarixa Dahbed, Dahbet,  
Dovut va Dog'bet kabi nomlar bilan atalib kelining  
bu tabarruk zaminda islam olamidagi uch buyuk  
a'zamning biri Maxdimi A'zam mangu qo'nim top-  
gan. Sal naridagi tarixiy Jar qishloqda millat sha'ni  
va qadri uchun qo'liga qurol olib, mustamaka siyo-  
sati va Turkiston general-gubernatorini zir titratgan  
hamda o'tgan asr boshlaridagi eng mashhur shaxs-  
ga aylangan Namoz botir yashagan.

O'ktam IKROMOV,  
tadqiqotchi tarixchi.

Iqtidorli yoshlarning bilim, ko'nik-  
ma va malakasini oshirish, innova-  
tion g'oyalarini amaliyatga tatbiq  
etish hamda hayotda o'z o'rnni  
topishiga ko'maklashish maqs-  
dida 2022-yildan boshlab "Mirzo  
Ulug'bek vorislari" respublika tanlovi  
o'tkazib kelinmoqda.

## Talabalarimiz respublika tanlovi g'olibi



2022-yilda Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filialining 3 nafr iqtidorli talabasi turman va viloyat, ulardan 1 nafrasi  
respublika bosqichida g'oliblikni qo'iga kiriting bo'lsa, yiori yilda tanlovda ishtirot etish uchun filialning 25 nafr talabasi ariza topshirdi.

Ulardan 8 nafrasi quyidagi bosqichlar-  
da g'olib bo'lib, respublika bosqichida  
ishtirot etdi.